



TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA BINO VA INSHOOTLAR QURILISHI

Umaraliyev Shohjaxon Maxamadro‘zi o‘g‘li, Mustafoyev Eldor Ilhom o‘g‘li

Annotatsiya: Jahonning barcha rivojlangan davlatlarida temir yo‘l transporti yetakchi o‘rinlarda birini egallaydi. Bu transport turini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri yuqori tezlikda harakatlanuvchi tezyurar transport tizimini joriy qilishdir.

Kalit so‘zlar: Bino va inshoot, quvurlar, temirbeton konstruksiyalar, stansiyalar, depolar, texnologik jarayonlar, platformalar, quvurlar, bitum.

Transport binolari deganda, bir-birlari bilan texnologik uzviy bog‘liq inshootlar va qurilmalar tushunilib, ular oraliq punktlarda joylashtirilgan va temir yo‘l orqali passajir va yuklarni tashishda bevosita ishtirok etadigan binolar tushuniladi. Transport binolari va inshootlarining umumiy nomenklaturasida 300 ga yaqin nomi mavjud. Ko‘pchilik transport binolari kichik hajmli bir qavatli qurilmalar hisoblanadi. Ikki qavatlisi, asosan, vokzal binolari; uch qavatliari ma‘muriy va maishiy binolar hisoblanadi. Stansiyalardagi katta binolar bular depolar, elektr bilan ta‘minlovchi markazlar, vagonlarni joriy ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish binolari xisoblanadi. Ustaxona sexlarida katta gabaritli uskunalar joylashtiriladi, ya‘ni yirik quvvatga ega domkratlar, kranlar, tekshirish maydonchalari va boshqalar. Texnologik jarayonlarni alohidaliligi katta ishlab chiqarish maydonlari, baland binolar (10,6-17,7m) qurilishi kerakligini talab qiladi. Vagonlar va lokomotivlarni ta‘mirlash deposining sexlari o‘lchamlari oralig‘i 18 dan va 24m gacha, uzunligi 48m dan 200m gacha bo‘lishi mumkin. Ayrim vagonlarni ta‘mirlash–ekipirovka qilish talab etiladi. Bunday binolar yig‘ma temir betondan karkasli qilib barpo etiladi. Bu binolarni hajmi 30m³ dan 30 ming m³ gacha bo‘ladi.

Baland passajir platformalarni montaj qilish. Bunday ishlarni asosan shaharoldi uchastkalari elektrifikatsiya kilinayotganda amalga oshiriladi.


Baland yo‘lovchi platformalar poli rels golovkasi sathidan 1100 mm balandlikda joylashtiriladi. Platformalar uzunligini nastilning (6m) beton plitalar uzunligi deb belgilanib, eng uzun yo‘lovchi tarkiblar uzunligi bilan tasdiqlanadi. Temir yo‘l izlarining joylashishiga karab, platformalar yonbosh (qirg‘oq) yoki oraliqdagi turlarga bo‘linadi. Platforma kengligi plita kenligiga (1,5m) barobar keladi. Yonbosh platformalar uchun 3, 4,5,6 m, oraliq platformalar uchun 4,5, 6, 9,12 m ga teng qilib olinadi. Yonbosh platformalarda chiqib-tushish zinalarini dala tomonga qaratilib 48-96 m masofada chetki tomonidan joylatiriladi, oraliq platformalarda faqat chetki tomonida joylashtiriladi¹.



Yig‘ma temirbeton elementlaridan tashkil topgan baland platformalar 3 xil konstruktiv variantta bo‘ladi: ikki tayanchli, bir tayanchli va blokli devorli.



Past yo'lovchi platformalarni tuproq to'shamaga bortli devor ko'rinishidagi temirbeton elementlaridan yoki baland platformalar tipidagi temirbeton rama va nastil plitalari ko'rinishida joylashtiriladi. Platformalar kengligi 3m kam bo'lishi kerak emas. Platformalar ustki qoplamasi asfalt qilingan yoki asfaltsiz bitum bilan ishlov berilgan graviya, shag'al yoki shlaklar bo'lishi mumkin. Yo'lovchi platformalar montaji bo'yicha ishlar asosan ekspluatatsiya paytida amalga oshiriladi, shuning uchun poyezdlar va ishchilarning shaxsiy xavfsizligi uchun barcha chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan bo'lishi kerak.



Yer polotnosida quvur konstruksiyalarini joylashish sxemasi.

Temir beton bo'laklarni orasi va fundamentlar yuzasi gidroizolyatsiyalanadi. Quvurni o'rnatish uchun qurilish maydonchasi tayyorlanadi. Bunda maydoncha buldozer bilan tekislanadi, qazib chiqarilgan grunt uchun joy ajratiladi. Quvur elementlari: fundament, kallagi, bo'laklari va qum, sheben, shag'al, sementlar uchun omborxonalar joylari belgilanadi, yana yashash uchun vagonchiklar, palatalar, montaj kranlari, elektrostantsiya, betonqorishtirgich, nasoslar uchun joy aniqlanadi. Shularni asosida qurilish maydonchasini tarxi tuziladi. Fundamentni yig'ish-montaj ishlari chiqish kallagidan boshlanadi. Birinchi galda kran bilan quvur kallagi fundament ostiga yotqiziladi. Sheben yoki shag'al bilan to'ldiriladi va sement qorishmasi bilan chuqur joydagi choklar to'ldiriladi. Tepa qism bloklari qator qilib yotqiziladi va ularni nishabliklari tekshiriladi. Bitgan fundament komissiyaga topshiriladi va ikki yon bag'riga balandligi 15-20 sm qilib baravariga grunt bilan to'ldirilib zichlanadi. Yig'ilgan quvurlar montaji uchun 5-15 t yuk ko'taradigan strelkali kranlar, 0,35-0,5 m³ cho'michli ekskavator va buldozerlar ishlatiladi.

Yig'ilgan quvurlar tashqi yuzasini gidroizolyatsiya qilishdan avval choklarga ishlov beriladi. Quvurlarni ikki yon bag'ri, asosiy yer ishlari bajarilgunga qadar h=0,20 m qalinlikdagi grunt bilan qatlam-qatlam to'ldiriladi va zichlanadi. Yer to'shamasi qurilgandan so'ng quvurni kirish kallagi atrofi pardozlanib mustahkamlanadi.

Gofirlangan, aylana shaklli po'lat quvurlarni diametri 1,5 – 2,5 m bo'ladi. Po'lat quvur bo'laklari bolt yordamida mustahkamlanadi va zanglashdan saqlash uchun, maxsus bitum mastikasi va emal bilan yopiladi. Metall quvurlarda ko'p holatda kirish va chiqish kallagi bo'lmaydi va uning o'rniga grunt yuvilib ketishdan saqlovchi ekranlar (gidroizolyatsiyaga o'xshash) qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nozimov Sh.R., Hobilov B.A., Temirbeton konstruksiyalar, Toshkent 1992;
2. Qosimov E., Qurilish ashyolari. Toshkent, 2004.
3. Khodjayeva, Nodira Sharifovna, and Ahrorbek Tolibjon o'glu Eshondayev. "Computer Automated Drawing and Design." *Spanish Journal of Innovation and Integrity* 4 (2022): 117-120.



4. Xodjayeva, Nodira Sharifovna. "HTML ELEMENTLARI VA ATRIBUTLAR." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* (2022): 115-119.
5. Xodjayeva, NS, & Komil o'g'li, GO (2022). KOMPYUTER GRAFIKASI NING INFORMATSION JAMIYATDAGI AHAMIYATI, RO'LI VA O'RNI. *ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI*, 1, 74-77.
6. Mamurova, F. T., Abdullayeva, N. K., & Mallaboyev, N. (2019). USING THE «ASSESSMENT» METHOD IN ASSESSING STUDENTS KNOWLEDGE. *Theoretical & Applied Science*, (11), 80-83.
7. Mamurova, F. I., & Mustafоеv, E. (2021, October). Aksonometrik Proyeksiyalarning Asosiy Teoremasi. Dimmetrik Aksonometriya Qurish. In " *ONLINE-CONFERENCES*" *PLATFORM* (pp. 100-103).
8. Mamurova, F. I., & ugli Mustafayev, E. I. (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. *Conferencious Online*, 16-18.
9. Omonov D. E. et al. ENGINEERING GRAPHIC SCIENCES ARE A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR CONDUCTING EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN LECTURES AND PRACTICAL TRAINING //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – T. 2. – №. 12. – С. 66-70.
10. Omonov, D. E. "Integration of fine arts and computer technologies in art education of students." *Middle European Scientific Bulletin* 17 (2021): 225-227.
11. Omonov, D. E., Kholikov, J. T., Shavqiev, E. R., & Khudayberdiyeva, K. (2019). Ancient ruins of samarkand. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(1), 49-53.
12. Islomovna M. F. et al. DESIGNING THE METHODOICAL SYSTEM OF THE TEACHING PROCESS OF COMPUTER GRAPHICS FOR THE SPECIALTY OF ENGINEER-BUILDER //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – T. 27. – №. 4
13. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2022). Information Technology in Education. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 1(1), 17-22.
14. Boymurodova G., Tosheva N. BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI O 'QUV VAZIYATLARINI TASHKILLASHTIRISHDA HAMKORLIKDA O 'QITISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2020. – Т. 1. – №. 1.
15. Toshtemirovna, Boymurodova Gulzoda. "BOSHLANGICH TA'LIM SIFAT VA SAMARADORLIGINU OSHIRISHDA HAMKORLIKDA OQITISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI." Научно-практическая конференция. 2022.
16. Мамурова Ф. И., Мамурова Д. И. КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИ ФАНИНИ ЎҚИТИШ ХОЛАТИ //TULAGANOV AA. – С. 145
17. Mamurova, F. T., Abdullayeva, N. K., & Mallaboyev, N. (2019). USING THE «ASSESSMENT» METHOD IN ASSESSING STUDENTS KNOWLEDGE. *Theoretical & Applied Science*, (11), 80-83.



18. Mamurova, F. I., & Mustafayev, E. (2021, October). Aksonometrik Proyeksiyalarning Asosiy Teoremasi. Dimmetrik Aksonometriya Qurish. In " *ONLINE-CONFERENCES*" *PLATFORM* (pp. 100-103).
19. Mamurova, F. I., & ugli Mustafayev, E. I. (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. *Conferencious Online*, 16-18.
20. Mamurova, F. I., & oglu Akmalov, J. O. (2021). ORGANIZATION OF GEODESIC WORK. STATE GEODESIC NETWORKS. *Conferencious Online*, 21-23.
21. Ogli, Makhmudov Anvar Abdulla, and Khudayberganov Abdulla Makhmudovich. "What should a future physics teacher know about the history of the atom and its development?." *Вестник науки и образования* 15-1 (51) (2018): 74-78.
22. Худайберганов, А. М. (2018). Преемственность при изучении энергетических спектров атомов и закономерности в атомных спектрах в квантовой теории. *Физическое образование в ВУЗах*, 24(4), 67-74.
23. Muradova F.R., Muradova Z.R., Ataulaev Sh.N., Kadirova Sh.M., Yodgorova M.O. Psychological aspects of computer virtual reality perception. *Journal of critical reviews*. 2020. Vol 7 Issue 18, p. 840-844.
24. Muradova F.R., Murodova Z.R. Use of information technologies in education. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation, UK*. -2020.- P. 3110-3116
25. Rustamovich S. T., Rashidovna M. Z., Buronova H. D. TECHNOLOGY AND RELEVANCE OF CREATING AN ELECTRONIC TRAINING COURSE //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 26. – №. 26.
26. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2022). Directions for Improving Teaching Methods. *Journal of Positive School Psychology*, 9671-9678.